



AKSIOLINGVISTIKANING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: TIL VA QADRIYATLAR UYG'UNLIGI

Boymatova Dilnoza Baxtiyorovna,

Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti, (PhD).

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v19iA.1807>

MAQOLA HAQIDA/ О СТАТЬЕ

Qabul qilindi: 17-avgust 2026-yil

Tasdiqlandi: 19-avgust 2026-yil

Jurnal soni: 19-A

Maqola raqami: 42

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

aksiolingvistika, lingvoaksiologiya, til va qadriyat, lisoniy ong, baholovchilik, milliy-madaniy kontekst, diskurs, metodologik asoslar

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Mazkur maqolada aksiolingvistikaning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lgan nazariy-metodologik qarashlar, til birliklarining qadriyatlarini ifodalash imkoniyatlari hamda til va milliy-madaniy qadriyatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tahlil qilinadi. Aksiolingvistikaning antropotsentrik tilshunoslik doirasida rivojlanishi inson omili, uning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi va qadriyatlar tizimini til hodisalarini o'rganishning muhim omiliga aylantirgani asoslanadi. Tilning faqat axborot almashish vositasi emas, balki jamiyatning tarixiy xotirasi, ma'naviy tajribasi, axloqiy mezonlari va madaniy qarashlarini saqlovchi hamda uzatuvchi tizim sifatidagi xususiyatlari yoritiladi. Tahlil jarayonida baholash kategoriyasining aksiolingvistik mazmuni shakllantirishdagi o'rni alohida ko'rib chiqilib, ijobiy va salbiy baholashning lisoniy vositalar orqali ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi. Baholash mazmunining shakllanishida so'zning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda uning kontekstual qo'llanishi, kommunikativ vaziyat, so'zlovchining munosabati va muayyan ijtimoiy-madaniy muhitning ta'siri muhim ekanligi ko'rsatiladi. Shu asosda aksiologik mazmuni faqat alohida til birliklari doirasida emas, balki matn va diskursning yaxlit mazmuniy tuzilishi bilan bog'liq holda o'rganish zarurligi asoslanadi. Maqolada qadriyatlarining lisoniy ifodasi kognitiv va lingvokulturologik jarayonlar bilan ham bog'liq holda talqin qilinadi. Milliy-madaniy konseptlar orqali xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy ideallari, axloqiy qarashlari va madaniy xotirasi til tizimida qanday namoyon bo'lishi yoritiladi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va ma'naviy o'zgarishlarning baholash mezonlariga ta'siri, ayrim qadriyatlarining mazmuniy talqinlari vaqt o'tishi bilan yangilanishi mumkinligi qayd etiladi. Bunday yondashuv aksiologik birliklarni statik hodisa sifatida emas, balki ijtimoiy va kommunikativ muhit bilan uzviy bog'liq dinamik hodisa sifatida baholash imkonini beradi. Aksiolingvistik tahlilning ushbu jihatlari uning zamonaviy tilshunoslikda tilning inson va jamiyat bilan bog'liq mazmuniy qatlamlarini tadqiq etuvchi muhim yo'nalishlardan biri sifatidagi ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

ABOUT THE PAPER

Accepted: 17 August 2026

Approved: 19 August 2026

Volume: 19-A

Paper number: 42

KEYWORDS

axiologistics, linguo-axiology, language and value, linguistic consciousness, evaluativity, national-cultural context, discourse, methodological foundations

ANNOTATION

This article examines the theoretical and methodological perspectives underlying the formation and development of axiologistics, the capacity of linguistic units to express values, and the interrelationship between language and national-cultural values. It substantiates the development of axiologistics within the anthropocentric paradigm of linguistics, where the human factor, individual worldview, social experience, and system of values have become important factors in the study of linguistic phenomena. The article highlights the role of language not merely as a means of information exchange, but also as a system that preserves and transmits the historical memory, spiritual experience, moral principles, and cultural perceptions of society. Particular attention is paid to the category of evaluation and its role in shaping axiological meaning, with a focus on the ways in which positive and negative evaluations are expressed through linguistic means. The study demonstrates that the formation of evaluative meaning depends not only on the lexical meaning of a linguistic unit but also on its contextual use, communicative situation, speaker's attitude, and specific socio-cultural environment. On this basis, the necessity of studying axiological meaning not only at the level of individual linguistic units but also in relation to the overall semantic structure of texts and discourse is substantiated. The article also interprets the linguistic representation of values in connection with cognitive and linguocultural processes. Particular attention is given to the ways in which national-cultural concepts reflect a people's historical experience, social ideals, moral perceptions, and cultural memory within the language system. The influence of socio-political, cultural, and spiritual transformations on evaluative criteria is also considered, demonstrating that the semantic interpretation of certain values may undergo changes over time. Such an approach makes it possible to view axiological linguistic units not as static phenomena, but as dynamic entities closely associated with their social and communicative environment. These aspects of axiological analysis determine the scholarly significance of axiologistics as an important field of contemporary linguistics concerned with the study of the semantic dimensions of language in relation to the individual and society.

Kirish

Aksiolingvistika zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik paradigmasi doirasida shakllangan, til birliklarining qadriyat va baholash xususiyatlarini inson, jamiyat hamda madaniyat bilan uzviy aloqadorlikda o'rganuvchi yo'nalishlardan biridir. Mazkur yo'nalishning yuzaga kelishi tilni faqat strukturaviy yoki kommunikativ tizim sifatida emas, balki insonning borliqni idrok etishi, unga munosabat bildirishi va muayyan qadriyatlar asosida baholashi bilan bog'liq murakkab hodisa sifatida talqin qilish zarurati bilan izohlanadi. Shu nuqtayi nazardan, til jamiyatning tarixiy tajribasi, ma'naviy-axloqiy qarashlari, estetik mezonlari va milliy-madaniy tasavvurlarini ifodalovchi hamda avlodlar o'rtasida uzatuvchi muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Til va madaniyatning bunday uzviy munosabati Y.S. Stepanovning madaniy konstantalar haqidagi

qarashlarida ham o'z ifodasini topgan. Olim til birliklari orqali muayyan xalqning tarixiy va madaniy tajribasi, dunyoni anglash usullari hamda qadriyatlar tizimi saqlanishini ko'rsatadi [4, 15–18-b.].

Lingvistikada antropotsentrik paradigmaga o'tilishi bilan til hodisalarini inson omili, uning tafakkuri, dunyoqarashi va qadriyatlar bilan bog'liq holda tadqiq etish imkoniyatlari kengaydi. Falsafiy aksiologiyaning asosiy kategoriyalari – qadriyat, baholash, me'yor, ideal va antideal kabi tushunchalarning tilshunoslikka tatbiq etilishi natijasida lisoniy birliklarning nafaqat nominativ, balki baholovchi va emotsional-ekspressiv imkoniyatlarini aniqlashga e'tibor kuchaydi. N.D. Arutyunova baholashni til semantikasining muhim kategoriyalaridan biri sifatida talqin qilib, insonning voqelikdagi narsa-hodisalar va jarayonlarga munosabati til vositalari orqali ifodalanishini ko'rsatadi [1, 5–7-b.]. Shunga ko'ra,

baholash tilning faqat qo'shimcha funksiyasi emas, balki insonning borliqni anglash va unga munosabat bildirish jarayonini aks ettiruvchi muhim semantik-pragmatik mexanizm sifatida qaratiladi.

Aksiologingvistik yondashuvning markaziy masalalaridan biri til birliklarida aks etuvchi qadriyat komponentini aniqlashdan iborat. Har qanday lisoniy birlik muayyan nutqiy vaziyatda faqat predmet yoki hodisani nomlash bilan cheklanmay, unga nisbatan ijobiy yoki salbiy, ma'qullovchi yoki qoralovchi munosabatni ham ifodalashi mumkin. Ayniqsa, sifat, ravish, modal birliklar, frazeologizmlar, maqollar, metaforalar va boshqa obrazli vositalarda baholash semantikasi yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda baho subyektiv munosabat bilan bir qatorda muayyan jamiyat tomonidan shakllantirilgan ijtimoiy-madaniy me'yorlarni ham aks ettiradi. Shu jihatdan aksiologik ma'no individual ong va kollektiv qadriyatlar tizimining kesishgan nuqtasida yuzaga keladigan murakkab semantik hodisa sifatida namoyon bo'ladi [1, 13–18-b.].

Til va qadriyatlar munosabatini o'rganishda konsept tushunchasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Inson ongida shakllanadigan "Vatan", "mehr", "or-nomus", "adolat", "ezgulik" kabi konseptlar nafaqat muayyan tushunchaviy mazmunni, balki mazkur tushunchaga jamiyat tomonidan berilgan baho va munosabatni ham mujassamlashtiradi. Z.D. Popova va I.A. Sternin konseptni insonning lisoniy ongida shakllanadigan, uning individual va milliy-madaniy tajribasini umumlashtiruvchi mental birlik sifatida izohlaydilar [3, 24–27-b.]. Shu sababli konseptlarning mazmunini tuzilishini o'rganish jarayonida ularning aksiologik komponentini aniqlash til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi munosabatlarni yanada chuqurroq yoritish imkonini beradi.

Aksiologingvistikaning muhim jihatlaridan yana biri qadriyatlarining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash bilan bog'liqdir. Turli xalqlarning bir xil hodisaga munosabati yoki unga beradigan bahosi o'zaro farqlanishi mumkin. Chunki baholash mezonlari muayyan tarixiy tajriba, ijtimoiy munosabatlar, diniy-axloqiy qarashlar, urf-odatlar va milliy mentalitet asosida shakllanadi. Y.S. Stepanovning madaniy konstantalar konsepsiyasi ham aynan shu jihatni, ya'ni til orqali xalqning uzoq tarixiy taraqqiyoti davomida shakllangan madaniy mazmunlarning saqlanishi va qayta namoyon bo'lishini tushuntirishga xizmat qiladi [4, 21–25-b.]. Demak, milliy tilning aksiologik imkoniyatlarini o'rganish orqali muayyan xalqning qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ideallari va madaniy ustuvorliklarini aniqlash mumkin.

Qadriyatlarining tildagi ifodasi statik hodisa emas, balki jamiyat taraqqiyoti bilan birga o'zgarib boruvchi dinamik jarayondir. Ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar natijasida ayrim lisoniy birliklarning baholovchi xususiyati kuchayishi, susayishi yoki o'zgarishi mumkin. Shu jihatdan til jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasini kuzatish imkonini beruvchi muhim manbalardan biri hisoblanadi. A.N. Baranov amaliy lingvistikada doirasida til birliklarining kommunikativ va semantik imkoniyatlari bilan bir qatorda ularning ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq funksiyalariga ham e'tibor qaratadi [2, 18–22-b.]. Bunday yondashuv til materialini jamiyatdagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda tahlil qilish, baholovchi birliklarning qo'llanish xususiyatlarini aniqlash va diskursda shakllanayotgan yangi mazmunlarni kuzatish imkonini beradi.

Aksiologik yondashuv matn va diskurs tadqiqida ham muhim metodologik imkoniyatlarga ega. Matnda muallifning voqelikka munosabati ko'pincha bevosita bayon qilinmasdan, tanlangan leksik birliklar, metaforalar, frazeologik birikmalar, modal konstruksiyalar va sintaktik vositalar orqali bilvosita ifodalanadi. Shu sababli matnning aksiologik tahlili uning mazmunini oddiy semantik darajada aniqlash bilan cheklanmay, muallifning qadriyatga asoslangan pozitsiyasini, muayyan hodisalarga bergan bahosini va o'quvchiga ta'sir ko'rsatishga xizmat qiluvchi lisoniy strategiyalarni aniqlashni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, siyosiy, publitsistik va badiiy diskurslarda baholovchi birliklarning qo'llanishini o'rganish muayyan ijtimoiy guruh yoki jamiyatda mavjud qadriyatlar tizimining lisoniy ifodasini ko'rsatish imkonini beradi.

Aksiologingvistika lingvokulturologiya va kognitiv lingvistik bilan ham uzviy aloqada rivojlanadi. Lingvokulturologik tadqiqotlarda til birliklarida mujassamlashtirilgan milliy-madaniy mazmunni aniqlash muhim bo'lsa, aksiologingvistik tahlil mazkur mazmunning baholovchi tomonini ochib berishga xizmat qiladi. Kognitiv yondashuv esa qadriyatlarining inson ongida qanday konseptualashtirilishi va lisoniy vositalar orqali qanday namoyon bo'lishini aniqlash imkonini beradi. Shu bois til, tafakkur, madaniyat va qadriyat munosabatlarini kompleks ravishda o'rganish zamonaviy tilshunoslikning antropotsentrik yo'nalishlari uchun muhim metodologik asoslardan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili

Aksiologingvistikaning nazariy-metodologik asoslarini o'rganishda tilning baholovchi tabiati, qadriyatlarining lisoniy ifodasi hamda til va madaniyat munosabati masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar muhim nazariy manba bo'lib xizmat qiladi. Mazkur yo'nalishning

shakllanishi tilni faqat axborot almashish vositasi sifatida emas, balki insonning borliqni idrok etishi, unga munosabat bildirishi va muayyan qadriyatlar asosida baholashini aks ettiruvchi tizim sifatida tadqiq etish zarurati bilan bog'liq. Shu sababli zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda til birliklarining nominativ va kommunikativ xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning baholovchi, emotsional-ekspressiv hamda milliy-madaniy mazmuniga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

N.D. Arutyunova tadqiqotlarida baholash til semantikasining muhim kategoriyalaridan biri sifatida talqin qilinadi. Olimning qarashlarida baholash insonning voqelikdagi narsa-hodisalarga bo'lgan munosabatini ifodalovchi murakkab semantik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Bunda baholovchi munosabat subyektning muayyan obyektga ma'qullashi yoki rad etishi, uni ijobiy yoki salbiy nuqtayi nazardan qabul qilishi bilan bog'lanadi. Baholashning shakllanishida baholovchi subyekt, baholanayotgan obyekt va baholash mezonlari o'rtasidagi munosabat muhim ahamiyat kasb etadi [1, 5–18-b.]. Mazkur nazariy qarash aksiologingvistik tadqiqotlarda baholovchi birliklarning semantik tabiatini aniqlash, ularning ijobiy yoki salbiy aksiologik yo'nalishini belgilash hamda baho kategoriyasining lisoniy mexanizmlarini ochib berish uchun asos bo'la oladi.

N.D. Arutyunova baholashning til tizimida turli sathlarda namoyon bo'lishiga e'tibor qaratadi. Baholovchi mazmun leksik birliklarning semantik tarkibida, sifat va ravishlarda, modal vositalarda, shuningdek, muayyan sintaktik va nutqiy konstruksiyalarda yuzaga chiqishi mumkin. Shu bilan birga, baholash mazmunini faqat alohida til birligining lug'aviy ma'nosi orqali aniqlash yetarli emas. Uning mazmuni ko'pincha kontekst, kommunikativ vaziyat va so'zlovchining voqelikka munosabati bilan belgilanadi [1, 25–37-b.]. Ushbu yondashuv aksiologingvistik tahlilning kontekstual va pragmatik xususiyatlarini belgilab, qadriyat mazmunining nutq jarayonida qanday faollashishini o'rganish imkonini beradi.

Til va qadriyatlar munosabatini o'rganishda Y.S. Stepanovning ilmiy qarashlari ham alohida ahamiyatga ega. Olim til birliklari orqali xalqning tarixiy tajribasi, madaniy xotirasi va dunyoqarashiga oid muhim mazmunlar saqlanishini asoslaydi. Uning madaniy konstantalar haqidagi konsepsiyasida muayyan xalq uchun tarixiy va madaniy jihatdan ahamiyatli bo'lgan tushunchalar til vositasida avlodlar avlodga o'tishi hamda turli davrlarda yangi mazmunni qatlamlar bilan boyib borishi ko'rsatiladi [4, 15–25-b.]. Mazkur qarash tilning qadriyatlarini saqlash va uzatish funksiyasini tushuntirish bilan birga, aksiologik mazmunning milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash uchun ham muhim nazariy asos yaratadi.

Y.S. Stepanovning qarashlaridan kelib chiqib, til birliklarini xalqning madaniy tajribasidan ajratgan holda o'rganish ularning to'liq mazmunini ochib berishga imkon bermasligi ko'rinadi. Chunki ayrim leksik birliklar o'zining bevosita lug'aviy ma'nosidan tashqari, tarixiy xotira, urf-odat, axloqiy me'yor va milliy dunyoqarash bilan bog'liq qo'shimcha semantik qatlamlarga ega bo'ladi. Bunday birliklarning aksiologik mazmuni jamiyatning muayyan qadriyatlar tizimi asosida shakllanadi va nutq jarayonida turli darajada namoyon bo'ladi [4, 30–37-b.]. Shu jihatdan tilning aksiologik imkoniyatlarini tadqiq etish milliy-madaniy birliklarning semantik tuzilishini chuqurroq anglash imkonini beradi.

A.N. Baranovning lingvistik qarashlarida til birliklarini real kommunikativ va ijtimoiy jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganish masalasiga alohida e'tibor beriladi. Tilning kommunikativ imkoniyatlarini tahlil qilishda kontekst, nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va so'zlovchining pozitsiyasi muhim omillar sifatida qaratiladi [2, 18–26-b.]. Mazkur metodologik yondashuv aksiologingvistik uchun ham ahamiyatlidir, chunki baholovchi ma'no ko'pincha til birligining lug'aviy mazmunidan ko'ra uning konkret kommunikativ vaziyatdagi qo'llanishi orqali to'liq namoyon bo'ladi. Bir xil birlik turli kontekstlarda turlicha baholovchi mazmun ifodalashi yoki neytral ma'nodan ijobiy yoxud salbiy bahoga o'tishi mumkin.

A.N. Baranovning yondashuvi asosida diskursdagi baholash hodisasini o'rganishda til birliklarining kommunikativ vazifasi, ularning nutqiy kontekstdagi o'rni va so'zlovchining maqsadi o'zaro bog'liq holda tahlil qilinishi lozim. Ayniqsa, ijtimoiy va ommaviy kommunikatsiya jarayonlarida baholovchi birliklar muayyan hodisaga munosabatni shakllantirish, ijobiy yoki salbiy obraz yaratish hamda muayyan qadriyatni ta'kidlash vositasi sifatida faol qo'llanadi [2, 27–35-b.]. Bu esa aksiologingvistik tadqiqotlarda leksik birliklarning semantik xususiyatlari bilan bir qatorda, ularning pragmatik va diskursiv imkoniyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi.

Til, tafakkur va qadriyatlar munosabatini yoritishda Z.D. Popova va I.A. Sterninning konsept haqidagi qarashlari ham muhim nazariy ahamiyatga ega. Olimlar konseptni inson ongida shakllanadigan, muayyan obyekt yoki hodisa haqidagi bilim, tasavvur, tajriba va assotsiatsiyalarni umumlashtiruvchi mental birlik sifatida talqin qiladilar. Konseptning mazmuni faqat mantiqiy-tushunchaviy ma'lumot bilan chegaralanmay,

unda milliy-madaniy tajriba, emotsional munosabat va baholovchi komponentlar ham mujassamlashishi mumkin [3, 24–32-b.]. Shu sababli aksiologik mazmunga ega bo'lgan “Vatan”, “mehr”, “adolat”, “or-nomus”, “ezgulik” singari konseptlarni o'rganishda ularning nominativ mazmuni bilan bir qatorda, lisoniy ongda shakllangan qadriyatli mazmunini ham aniqlash zarur.

Z.D. Popova va I.A. Sterninning konseptual yondashuvi milliy-madaniy qadriyatlarning lisoniy ongda qanday tuzilishini tadqiq etish imkonini beradi. Muayyan konseptning mazmuni individual tajriba bilan birga jamiyatning tarixiy va madaniy tajribasi asosida shakllanadi. Shu bois bir xil konsept turli lingvomadaniy jamoalarda turlicha mazmunini va aksiologik xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin [3, 35–42-b.]. Ushbu qarash aksiologik tadqiqotlarda milliy qadriyatlarining universal va milliy xususiyatlarini farqlash, ularning lisoniy ifodasidagi o'ziga xosliklarni aniqlash uchun nazariy asos yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur tadqiqotda aksiologik, lingvokulturologik, semantik-pragmatik va kognitiv yondashuvlardan foydalanildi. Aksiologik yondashuv asosida til birliklarining baholovchi xususiyatlari hamda ularda aks etgan ijobiy va salbiy qadriyat mazmuni aniqlandi. Lingvokulturologik yondashuv orqali milliy-madaniy qadriyatlarining leksik birliklar, frazeologizmlar va konseptlarda ifodalanish xususiyatlari tahlil qilindi. Semantik-pragmatik tahlil yordamida baholovchi birliklarning kontekstual mazmuni va kommunikativ vazifalari ochib berildi. Kognitiv yondashuv esa qadriyatlarining lisoniy ongda konseptual shakllanishi va namoyon bo'lish mexanizmlarini aniqlashga xizmat qildi. Tadqiqot davomida tavsiflash, qiyoslash, komponent tahlil va kontekstual tahlil usullaridan ham foydalanildi.

Natijalar

Har bir lisoniy shaxs muayyan madaniy-aksiologik makonda shakllanadi va uning borliq haqidagi tasavvurlari, ijtimoiy tajribasi hamda qadriyatlar tizimi nutqiy faoliyatida namoyon bo'ladi. Til birliklari orqali jamiyat uchun muhim bo'lgan ezgulik va yovuzlik, adolat va adolatsizlik, go'zallik va xunuklik, hurmat va bepisandlik kabi universal hamda milliy qadriyatlar ifodalanadi. Shu ma'noda lisoniy shaxsning nutqida qo'llanadigan so'z va iboralar faqat axborot yetkazish vazifasini bajarmaydi, balki so'zlovchining muayyan hodisa yoki predmetga munosabatini ham ifodalaydi. Lisoniy ongda shakllangan qadriyatlar nutq jarayonida so'z tanlash, baholovchi birliklardan foydalanish va emotsional-ekspressiv vositalarni qo'llash orqali yuzaga chiqadi. Ayniqsa, “Vatan”, “mehr”, “or-nomus”, “adolat”, “ezgulik” kabi konseptlar tarkibida predmet yoki hodisa haqidagi tushunchaviy ma'no bilan bir qatorda, jamiyat va shaxs tomonidan shakllantirilgan aksiologik munosabat ham mujassamlashadi.

Aksiologik yondashuv asosiy kategoriyalaridan biri baholash hisoblanadi. Baholash insonning borliqdagi narsa-hodisalarni muayyan mezon asosida qabul qilishi va ularga ijobiy yoki salbiy munosabat bildirishini ifodalovchi lisoniy hodisadir. U faqat mantiqiy hukm shaklida emas, balki leksik, grammatik, sintaktik va pragmatik vositalar orqali ham namoyon bo'ladi. A.N. Baranovning tilning kommunikativ va nominativ funksiyalarini tadqiq etishga oid qarashlari baholash hodisasini real kommunikativ jarayon bilan bog'liq holda o'rganish imkonini beradi. Til birliklarining mazmuni va qo'llanish xususiyatlari ijtimoiy jarayonlar, kommunikativ vaziyat hamda so'zlovchining maqsadi bilan o'zaro aloqador bo'lib, bunday yondashuv tilning jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirish imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi [1, 18–26-b.].

Jamiyatda yuz beradigan ijtimoiy, siyosiy va madaniy o'zgarishlar tilning leksik-semantik qatlamida ham o'z aksini topadi. Ijtimoiy dunyoqarash va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlar ayrim so'zlarning baholovchi xususiyatiga ta'sir ko'rsatishi, avvalgi davrda ijobiy ma'noda qo'llangan birlikning keyinchalik salbiy konnotatsiya kasb etishi yoki aksincha, yangi ijtimoiy qadriyatlarining paydo bo'lishi bilan yangi baholovchi birliklarning faol qo'llanishiga olib kelishi mumkin. Shu jihatdan til jamiyatdagi qadriyatlar transformatsiyasini kuzatish imkonini beruvchi muhim manba hisoblanadi. Baholovchi birliklarning turli davr va diskurslarda qo'llanishini qiyosiy o'rganish orqali jamiyatning muayyan hodisalarga bo'lgan munosabati va qadriyatlar tizimidagi o'zgarishlarni aniqlash mumkin.

Baholash subyektiv va obyektiv xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin. Subyektiv baholashda so'zlovchining individual munosabati, hissiy holati va shaxsiy qarashlari ustuvor bo'lsa, obyektiv baholashda jamiyat tomonidan shakllangan me'yorlar, umumiy qabul qilingan qadriyatlar va ijtimoiy tajriba muhim rol o'ynaydi. Til tarkibidagi sifatlar, ravishlar, modal birliklar, frazeologik birikmalar va boshqa baholovchi vositalar mazkur munosabatlarni ifodalashda faol qatnashadi. Biroq ularning baholovchi mazmunini faqat lug'aviy ma'no asosida aniqlash yetarli emas. Muayyan birlikning aksiologik yo'nalishi uning kontekstdagi qo'llanishi, kommunikativ vaziyat va so'zlovchining maqsadi bilan belgilanadi.

Aksiologik yondashuv tilni statik va o'zgarimas tizim sifatida emas, balki insonning qadriyatlar olami bilan uzviy aloqada bo'lgan dinamik hodisa sifatida talqin qilish imkonini beradi. Bunda tilning formal tuzilishi bilan bir qatorda, uni yaratadigan va undan foydalanadigan insonning dunyoqarashi, ijtimoiy tajribasi, emotsional munosabati va baholovchi tafakkuri ham tadqiqot markaziga chiqadi. Shuning uchun aksiologik tahlilda til birliklarining shakli va semantik xususiyatlari ularning inson faoliyati, madaniy tajriba va ijtimoiy muhit bilan aloqadorligi asosida o'rganiladi.

Til birliklari, xususan, so'zlar, frazeologizmlar, maqollar, metaforalar va diskursiv qoliqlar jamiyatning ma'naviy-axloqiy qiyofasini aks ettirishning muhim vositalaridan hisoblanadi. Milliy tilning leksik va frazeologik tizimida muayyan xalq uchun qadriy bo'lgan tushunchalar, axloqiy me'yorlar va ijtimoiy ideallar mujassamlashadi. Mehnatsevarlik, kattalarga hurmat, o'zaro yordam, mehmondo'stlik, or-nomus kabi tushunchalarning turli lisoniy birliklarda ifodalanishi xalqning tarixiy va madaniy tajribasi bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli tilning aksiologik qatlamini o'rganish orqali jamiyatda shakllangan ma'naviy-axloqiy me'yorlarning lisoniy ifodasini aniqlash mumkin.

Aksiologik yondashuvning ilmiy ahamiyati uning matn, diskurs, tarjima va lingvokulturologik tadqiqotlarda qo'llanish imkoniyatlari bilan ham belgilanadi. Matn tahlilida mazkur yondashuv muallifning voqelikka nisbatan munosabatini, baholash mezonlarini va muayyan qadriyatlarini qanday ifodalashini aniqlashga yordam beradi. Muallifning pozitsiyasi ko'pincha ochiq hukm shaklida emas, balki tanlangan leksik birliklar, metaforalar, frazeologizmlar, modal konstruksiyalar va emotsional-ekspressiv vositalar orqali yuzaga chiqadi. Shu bois aksiologik tahlil matnning nafaqat predmet-mantiqiy mazmunini, balki uning emotsional, madaniy va baholovchi qatlamlarini ham ochib berish imkonini yaratadi.

Diskurs doirasida esa aksiologik birliklar kommunikativ strategiyaning tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, publitsistik, siyosiy, ommaviy axborot vositalari va badiiy diskurslarda muayyan shaxs, hodisa yoki voqea haqida ijobiy yoki salbiy tasavvur shakllantirishda baholovchi birliklardan foydalaniladi. Bunda til vositalarining tanlanishi tasodifiy bo'lmay, so'zlovchi yoki muallifning kommunikativ maqsadi bilan belgilanadi. Shuning uchun diskursdagi aksiologik birliklarni o'rganish orqali nafaqat ularning semantik mazmunini, balki muayyan qadriyatlarining qanday ifodalanishi va kommunikativ jarayonda qanday faollashishini ham aniqlash mumkin.

Aksiologik yondashuv tarjima jarayonida ham muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunki tarjima faqat bir tildagi birlikning ikkinchi tildagi lug'aviy ekvivalentini topish bilan chegaralanmaydi. Har bir milliy tilda muayyan xalqning tarixiy tajribasi, mentaliteti va qadriyatlarini bilan bog'liq konnotativ mazmunlar mavjud bo'ladi. Shu sababli tarjimon asl matndagi baholovchi komponentni, emotsional-ekspressiv bo'yoqni va milliy-madaniy mazmunni ham imkon qadar saqlashi zarur. Aksiologik jihatdan nomuvofiq tarjima asl matnning kommunikativ ta'sirini va madaniy mazmunini o'zgartirishi mumkin.

Til va madaniyat munosabatini o'rganishda aksiologik yondashuv lingvokulturologiya bilan bevosita tutashadi. Jamiyat uchun muhim bo'lgan axloqiy, estetik va ijtimoiy qadriyatlar maqollar, frazeologizmlar, metaforalar hamda konseptlar orqali lisoniy shaklga ega bo'ladi. Ayniqsa, “nomus”, “or”, “adolat”, “mehr”, “Vatan” singari konseptlarning mazmunini faqat lug'aviy izoh bilan cheklab bo'lmaydi. Ularning mazmunini tuzilishida xalqning tarixiy tajribasi, ijtimoiy munosabatlari, madaniy qarashlari va baholash mezonlari ham mujassam bo'ladi.

Konseptlarning lisoniy ongda o'rni aniqlashda Z.D. Popova va I.A. Sterninning qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Ularning konsepsiyasiga ko'ra, konsept inson ongida shakllanadigan, muayyan bilim, tasavvur va tajribani umumlashtiruvchi mental birlikdir. Konsept tarkibida nafaqat tushunchaviy axborot, balki obrazli, assotsiativ, emotsional va baholovchi komponentlar ham mavjud bo'lishi mumkin [2, 24–32-b.]. Mazkur yondashuv aksiologik tadqiqotlarda qadriyatlarining inson lisoniy ongda qanday konseptualashtirilishini aniqlash uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Konseptlarning mazmuni muayyan lingvomadaniy jamoaning tarixiy va ijtimoiy tajribasi bilan shakllangani sababli bir xil tushuncha turli xalqlarda turlicha aksiologik mazmun kasb etishi mumkin. Masalan, “or-nomus”, “mehmondo'stlik”, “kattaga hurmat” kabi tushunchalarning mazmuni va baholovchi komponentlari muayyan milliy madaniyatning tarixiy tajribasi bilan belgilanadi. Shu jihatdan milliy o'ziga xoslikni o'rganishda til egalari tomonidan qaysi tushunchalarning yuqori qadriyat sifatida baholanishi, qaysi hodisalarning esa salbiy munosabat bilan ifodalanishi muhim ko'rsatkich hisoblanadi.

Shunday qilib, aksiologik yondashuv til birliklarini faqat nominativ birliklar sifatida emas, balki insonning borliqni baholashi, madaniy tajribani anglash va ijtimoiy qadriyatlarini ifodalash vositasi sifatida tadqiq etishga imkon beradi. Baholash kategoriyasi, konsept,

lisoniy ong, milliy-madaniy mazmun va diskurs kabi tushunchalarning o'zaro aloqadorligi aksiologingvistikaning nazariy asosini tashkil etadi. Mazkur yondashuv orqali tilning jamiyatdagi qadriyatlarini aks ettirish, ularni saqlash va avlodlararo uzatish imkoniyatlarini kompleks ravishda ochib berish mumkin.

Muhokama

Aksiologingvistik yondashuv doirasida olingan nazariy qarashlar til va qadriyat munosabatlari bir yo'nalishli emas, balki o'zaro ta'sirga asoslangan murakkab jarayon ekanini ko'rsatadi. Til jamiyatda mavjud qadriyatlarini shunchaki aks ettirib qolmay, ularni nomlash, mazmunan mustahkamlash va kommunikativ jarayonda qayta faollashtirish imkoniyatiga ham ega. Shu jihatdan lisoniy birliklarning aksiologik mazmuni tayyor va o'zgarimas hodisa sifatida emas, balki tarixiy, ijtimoiy va kommunikativ sharoit ta'sirida shakllanadigan semantik hodisa sifatida qaralishi lozim. Muayyan birlikning baholovchi xususiyati uning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda, qo'llanish muhiti, so'zlovchining pozitsiyasi va adresatga yo'naltirilgan kommunikativ maqsad orqali belgilanadi.

Tahlil natijalari baholash kategoriyasining tilning turli sathlari bilan uzviy bog'langanini ko'rsatadi. Leksik birliklarda baho ko'pincha bevosita ifodalansa, frazeologizmlar, metaforalar va sintaktik konstruksiyalarda u kontekst orqali yuzaga chiqishi mumkin. Ayniqsa, bir xil lisoniy birlikning turli kommunikativ vaziyatlarda turlicha aksiologik mazmun kasb etishi baholashning kontekstual tabiatini ko'rsatadi. Demak, baholovchi birliklarni faqat lug'atdagi ma'nosi asosida tasniflash tilning real kommunikativ imkoniyatlarini to'liq ochib bera olmaydi. Bunday birliklarning semantik-pragmatik xususiyatlarini matn va diskurs doirasida o'rganish zarur.

Tilning aksiologik imkoniyatlari jamiyatdagi qadriyatlar o'zgarishini kuzatishda ham muhim ilmiy manba bo'la oladi. Ijtimoiy munosabatlar, madaniy qarashlar va kommunikativ ehtiyojlarning o'zgarishi ayrim so'z va iboralarning konnotativ mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Natijada avval neytral yoki ijobiy mazmunda qo'llangan birliklar muayyan davrda boshqa baholovchi yo'nalishga ega bo'lishi, yangi ijtimoiy tushunchalar esa yangi nomlash va baholash vositalarini yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat tilning jamiyatdagi o'zgarishlarga bevosita munosabat bildirish xususiyatiga ega ekanini ko'rsatadi. Shuning uchun aksiologingvistik tahlil til taraqqiyotining ichki jarayonlarini emas, balki til va ijtimoiy muhit o'rtasidagi munosabatlarni ham yoritishga xizmat qiladi.

Muhokama jarayonida alohida e'tibor talab qiladigan jihatlardan biri aksiologik ma'noning individual va kollektiv omillar birligida shakllanishidir. Shaxsning muayyan hodisaga bergan bahosi uning shaxsiy tajribasi bilan belgilanadi, biroq bu baho jamiyat tomonidan shakllantirilgan me'yorlar va qadriyatlar tizimidan tashqarida yuzaga kelmaydi. Shu sababli lisoniy shaxs nutqidagi baholovchi birliklar individual munosabat bilan bir qatorda, muayyan lingvomadaniy muhitning umumiy qarashlarini ham aks ettiradi. Ayniqsa, milliy-madaniy mazmuni kuchli bo'lgan konseptlarda individual va kollektiv tajribaning o'zaro birikishi yaqqol kuzatiladi.

Konseptlarning aksiologik tuzilishini o'rganish mazkur jarayonning yana bir muhim tomonini ochib beradi. Konsept inson ongida faqat tushunchaviy axborot yig'indisi sifatida emas, balki obraz, assotsiatsiya, hissiy munosabat va qadriyatli tasavvurlar majmui sifatida shakllanadi. Shu bois "Vatan", "adolat", "mehr", "or-nomus" kabi birliklarning mazmunini aniqlashda ularning lug'aviy izohi bilan cheklanib qolish yetarli emas. Ularning real nutqdagi qo'llanishi, qanday birliklar bilan birikishi, qanday kontekstlarda faollashishi va qanday baholovchi munosabat bilan birga kelishi konseptning aksiologik mazmunini aniqlashga yordam beradi. Bunday tahlil milliy mentalitetning tilidagi ifodasini ham aniqroq ko'rsatadi.

Aksiologik yondashuvning matn va diskurs tahlilidagi imkoniyatlari ham alohida ahamiyatga ega. Matnning mazmuni faqat unda bevosita bayon qilingan fikrlar orqali emas, balki muallifning so'z tanlovi, obraz yaratish usuli, modal munosabati va baholovchi birliklardan foydalanish strategiyasi orqali ham shakllanadi. Shu sababli matnning aksiologik tahlili muallif pozitsiyasini aniqlashning samarali vositalaridan biri sifatida qaralishi mumkin. Bunda "ijobiy" yoki "salbiy" bahoni mexanik tarzda belgilashdan ko'ra, bahoning qanday lisoniy vosita yordamida, qanday kontekstda va qanday kommunikativ vazifa asosida yuzaga kelganini aniqlash muhimdir.

Mazkur yondashuv tarjima jarayonida ham o'ziga xos natijalarni yuzaga chiqaradi. Turli tillarda mavjud bo'lgan milliy-madaniy

birliklarning lug'aviy ekvivalenti topilgan taqdirda ham, ularning aksiologik mazmuni to'liq mos kelmasligi mumkin. Chunki bir xalq uchun yuqori qadriyat hisoblangan tushuncha boshqa madaniyatda boshqa assotsiativ yoki baholovchi mazmunga ega bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Shu sababli tarjimada semantik moslik bilan bir qatorda konnotativ, pragmatik va madaniy moslikni ham hisobga olish zarur. Aksiologik komponentning saqlanishi tarjima qilingan matnning mazmuni va kommunikativ ta'sirini adekvat yetkazishda muhim omil hisoblanadi.

Tahlil qilingan nazariy yondashuvlar aksiologingvistikaning boshqa antropotsentrik yo'nalishlar bilan uzviy aloqada rivojlanishini ham ko'rsatadi. Lingvokulturologiya til birliklarida mujassamlashgan milliy-madaniy mazmunni aniqlashga imkon bersa, kognitiv lingvistika qadriyatlarining inson ongida konseptuallashuv mexanizmlarini tushuntiradi. Pragmatik va diskursiv yondashuvlar esa ushbu qadriyatlarining real kommunikativ jarayonda qanday faollashishini ko'rsatadi. Demak, aksiologik tahlilning samaradorligi uni boshqa metodologik yondashuvlardan ajratib qo'yishda emas, balki ularning imkoniyatlarini bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida qo'llashda namoyon bo'ladi.

Shuningdek, aksiologik tahlilning chegaralarini ham hisobga olish lozim. Har qanday lisoniy birlikni avtomatik ravishda muayyan qadriyat bilan bog'lash ilmiy jihatdan yetarli asosga ega bo'lmamasligi mumkin. Baho mazmuni ko'pincha kontekst, nutq vaziyati, kommunikativ maqsad va madaniy tajriba bilan belgilanadi. Shu sababli aksiologik birliklarni aniqlashda faqat intuitiv talqiniga emas, balki matniy dalillar, semantik tahlil, kontekstual kuzatish va qiyosiy materiallarga tayanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, milliy qadriyatlarini tahlil qilishda tadqiqotchining shaxsiy bahosini lisoniy materialning obyektiv xususiyatlaridan ajratish muhim metodologik talab hisoblanadi.

Muhokama qilingan masalalar aksiologingvistikaning til birliklari va qadriyatlar o'rtasidagi munosabatni bir necha sathda semantik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik darajalarda tadqiq etish imkonini berishini ko'rsatadi. Bunday yondashuv tilning jamiyatdagi qadriyatlar tizimini ifodalash mexanizmlarini aniqlash bilan birga, qadriyatlarining nutq jarayonida qanday mazmun kasb etishi, qanday kommunikativ vositalar orqali faollashishi va turli madaniy sharoitlarda qanday talqin qilinishini tushuntirishga xizmat

Xulosa

Aksiologingvistikaning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish til va qadriyatlar o'rtasidagi uzviy munosabatni aniqlash imkonini beradi. Til nafaqat kommunikativ vosita, balki jamiyatning tarixiy tajribasi, axloqiy-me'yoriy qarashlari, milliy-madaniy tasavvurlari va ijtimoiy qadriyatlarini saqlovchi hamda avlodlararo yetkazuvchi muhim tizim sifatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan aksiologingvistik tahlil til birliklarining semantik mazmuni bilan bir qatorda, ularni mujassamlashgan baholash, munosabat va qadriyat komponentlarini aniqlashga yo'naltiriladi. Aksiologik mazmunning shakllanishida leksik birliklar, frazeologizmlar, konseptlar, matn va diskurs kabi lisoniy hodisalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning qiymat mazmuni doimo kontekst, kommunikativ vaziyat va muayyan ijtimoiy-madaniy muhit bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Shu sababli qadriyatlarini faqat alohida so'zlarning lug'aviy ma'nosi orqali emas, balki ularning nutqdagi qo'llanishi, baholash xususiyati va kommunikativ vazifasi bilan birgalikda tahlil qilish zarur. Aksiologingvistikaning semantik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik yondashuvlar bilan uyg'unlashuvi til hodisalarining qadriyatga oid mazmunini yanada kengroq ochib berishga xizmat qiladi. Ayniqsa, milliy-madaniy konseptlarni o'rganish orqali muayyan xalqning dunyoqarashi, ma'naviy mezonlari va ijtimoiy ideallari til vositasida qanday ifodalanishi aniqlanadi. Shu bilan birga, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar tilning baholovchi tizimiga ham ta'sir ko'rsatib, ayrim qadriyatlarining mazmuni, faolligi va kommunikativ talqinida o'zgarishlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Aksiologingvistik yondashuv tilni qadriyatlar tizimidan ajratmagan holda o'rganishni taqozo etadi. Bunday yondashuv til birliklarining nafaqat nimani anglatishini, balki ular orqali qanday munosabat, baho va ijtimoiy-madaniy qarash ifodalanishini aniqlash imkonini beradi. Shu asosda aksiologingvistika til, tafakkur, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni kompleks tahlil qiluvchi istiqbolli lingvistik yo'nalish sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Арутюнова Н. Д. Типы языковых значений: Оценка. Событие. Факт. – М.: Наука, 1988. – 341 с.

2. Баранов А. Н. Введение в прикладную лингвистику: учебное пособие. – М.: Эдиториал УРСС, 2001. – 360 с.

3. Попова З. Д., Стернин И. А. Когнитивная лингвистика. – М. : АСТ : Восток–Запад, 2007. – 314 с.
4. Степанов Ю. С. Константы: Словарь русской культуры: опыт исследования. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1997. – 824 с.
5. Вольф Е. М. Функциональная семантика оценки. – М.: Наука, 1985. – 228 с.
6. Карасик В. И. Языковые ключи: концепты, концептосферы, дискурс. – М.: Гнозис, 2009. – 406 с.
7. Карасик В. И. Языковая матрица культуры. – М.: Гнозис, 2013. – 320 с.
8. Телия В. Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
9. Кубрякова Е. С. Начала когнитивной науки о языке: лингвистические проблемы. – М. : Языки славянской культуры, 2004. – 135 с.
10. Маслова В. А. Лингвокультурология : учебное пособие. – М.: Академия, 2001. – 208 с.
11. Маслова В. А. Когнитивная лингвистика : учебное пособие. – Минск : ТетраСистемс, 2004. – 256 с.
12. Красных В. В. Этнопсихоллингвистика и лингвокультурология : курс лекций. – М. : ИТДГК «Гнозис», 2002. – 284 с.
13. Шаховский В. И. Лингвистическая теория эмоций. – М. : Гнозис, 2008. – 416 с.
14. Серебренников Б. А. Роль человеческого фактора в языке: Язык и картина мира. – М. : Наука, 1988. – 216 с.